Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o‘rni” mavzus...

materiallar to‘plami

ISO 14001 STANDARTLARI BO‘YICHA OLIB BORILGAN ILMIY ISHLARNING ADABIYOTLAR TAHLILI

X.X.G‘ulomov, Andijon mashinasozlik instituti stajor o‘qituvchisi,
O.O.Abdujabborov, Andijon mashinasozlik instituti assistenti

Annotatsiya

Ushbu maqola scopus bazasidagi ISO 14001 standarti bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlarni biblometrik tahlil qilishga qaratilgan. Maqolani maxsus xususiyati shundaki ISO 14001 bo‘yicha olib borilgan ishlar 2000-2023 yillar oralig‘ida, davlatlar hamda mualliflar kesimida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Biblometrik tahlil, muallif, ISO 14001, havfsizlik, inson, tabiat, atrof-muhit, ekologiya, statistik tahlil.

ISO 14001 atrof-muhitni boshqarish tizimi mezonlarini belgilaydi va sertifikatlanishi mumkin. U atrof-muhitni boshqarishning samarali tizimini yaratish uchun kompaniya yoki tashkilot amal qilishi mumkin bo'lgan asosni belgilaydi[3].

Faoliyati yoki sektoridan qat'i nazar, har qanday turdagi tashkilot uchun ishlab chiqilgan bo'lib, u kompaniya rahbariyati va xodimlariga hamda tashqi manfaatdor tomonlarga atrof-muhitga ta'sir o'lchanayotgani va yaxshilanayotganiga ishonch hosil qilishi mumkin.


ISO 14000 standartlari oilasi ISO/TC 207 texnik qo'mitasi va uning turli quyi qo'mitalari tomonidan ishlab chiqilgan[2]. ISO 14001 atrof-muhit tizimlari bilan bog'liq foydalanish uchun qo'llanma bilan talablarni taqdim etadi. Oiladagi boshqa standartlar auditlar, aloqalar, etiketkalar va hayot tsiklini tahlil qilish kabi aniq yondashuvlarga, shuningdek, iqlim o'zgarishi kabi ekologik muammolarga qaratilgan[1].

Ushbu maqolada biblometrik tahlilni o‘tkazish ketma-ketligi quyidagicha:

Published: 10.11.2023

Cite this article: X.X.G‘ulomov, O.O.Abdujabborov (2023). ISO 14001 standartlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlarning adabiyotlar tahlili. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/434


© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.



1-rasm. Biblometrik tahlil tayyorlashning sxematik ketma-ketligi.

ISO 14001 standartini joriy qilish hamda uni doimiy ravishda ko‘rsatkichlarini rivojlantirib turish juda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki ishlab chiqarish sanoati qay darajada rivoj topmasin avvalambor atrof muhit va ishlash havfsizligi masalalari ustuvor vazifa bo‘lib sanaladi[4].

Ushbu maqolani dastlabki bosqichi 2000-2023-yillar oralig‘ida ISO 14001 bo‘yicha chop etilgan ilmiy ishlar dinamikasi o‘rganildi[5].




2-rasm. So'ngi 10 yillikdagi ilmiy maqolalar dinamikasi.

Biz ushbu yillar bo‘yicha ma’lumotlarni o‘rganish natijasida shuni ko‘rishimiz mumkinki 2000-2023 yillar oralig‘ida eng salmoqli ishlar 2-rasmdan ko‘rishimiz mumkinki maqolalarning o‘sish dinamikasi 2015-2017 yillar oralig‘ida o‘sishini ko‘rishimiz mumkin[6].



3-rasm. Eng ko‘p maqolalar chop etilgan yillar dinamikasi[7].

2017 yilda bo‘lgan va maqolalar soni 140 tani tashkil qilib, bu umumiy maqolalarning 6,09 % ga to‘g‘ri kelgan. Eng kam maqolalar ulushi esa 2023-yilda kuzatilmoqda, bu 62 ta ko‘rsatkich bilan umumiy maqolalar ulushini 2,6 % ga tengligini kuzatishimiz mumkin.




4-rasm. Eng ko‘p ilmiy maqolalar chop etgan mualliflar.

Ushbu diagrammada Iso 14001 standarti bo‘yicha eng ko‘p maqola yozgan top 10 talik mualliflar berilgan, bundan ko‘rinib turiptiki Haras-Saizarbitoria va Boiral 21 tadan maqola bilan birinchi o‘rinda bo‘lsa 13 ta maqola bilan Sampaio 10 talikka yakun yasayapti.




5-rasm. Davlatlar kesimida maqolalar salmog‘i

Ushbu diagrammada ushbu standart boyicha eng ko‘p maqola yozilgan top 10 davlatlar keltirib o‘tilgan, Qo‘shma shtatlarda 330 ta maqola bilan birinchi o‘rinda bo‘lsa, 60 ta maqola bilan Indonesia 10 talik oxrida.



Ushbu karta orqali Ekologiya boshqaruv tizimi standarti bo‘yicha Mintaqalar kesimi bo‘yicha ko‘rsatib o‘tilgan,bundan aniqki Shimoliy amerika ushbu soxada eng ko‘p maqola chop ettirgan bo‘lsa, Brazilga yani Janubiy America Osiyo qitasidan keyin 136 maqola bilan top 10 talik oxrida.



6-rasm. Manbaalar bo‘yicha ilmiy ishlar taqsimoti.

Diagrammadan ko‘rishimiz mumkin ISO 14001 standarti bo‘yicha yozilgan manbalar eng ko‘pi maqola ko‘rinishida chop etilgan umumiy manbalardi 64% tashkil qiladi eng kam manba kitob bo‘lib nashr qilingan[8].

Adabiyotlar

1. Uaytlou, Ken. ISO 14001 atrof-muhit tizimlari uchun qo'llanma . Routledge, 2012 yil.
2. Bansal, Pratima va Uilyam C. Bogner. "ISO 14001 bo'yicha qaror qabul qilish: iqtisodiyot, institutlar va kontekst". Uzoq muddatli rejalashtirish 35.3 (2002): 269-290.
3. Abdujabborov, Obidjon. "Energiya Menejmenti tizimi (ISO 50001: 2018) standarti va uning xususiyatlari." Scienceweb akademik maqolalar to‘plami (2022).
4. Boiral, Olivier va boshqalar. "ISO 14001 qabul qilinishi va natijalari: tizimli tahlil". Menejment sharhlari xalqaro jurnali 20.2 (2018): 411-432.
5. Abdujabborov, Obidjon. "sifat management tizimlarini yukori rahbariyat tomonidan tahlilash." Scienceweb akademik maqolalar to‘plami (2021).
6. https://www.iso.org/iso-14001-environmental-management.html
7. https://www.mapchart.net/world.html
8. https://www.scopus.com/term/analyzer.uri?sort=plf-f&src=s&sid=22aea5c5a26dbab36387bc8c25187cf7&sot=a&sdt=a&sl=62&s=TITLE-ABS-KEY%28ISO+14001%29+AND+PUBYEAR+%3e+1999+AND+PUBYEAR+%3c+2024&origin=resultslist&count=10&analyzeResults=Analyze+results

TEXNIKA TA’LIM YO‘NALISH TALABALARGA LABORATORYA MASHG`ULOTLARINI OLIB BORISHNING ZAMONAVIY USULLARI (MASHINA MEXANIZMLAR NAZARYASI FANI MISOLIDA)

Jalilova Gulnoza Xabibullo qizi, Assistent, Farg‘ona politexnika instituti
Xamidjonov Axliddin Komiljon o`g`li, Student, Farg‘ona politexnika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari texnika yo‘nalishi talabalarini “Mashina mexanizmlar nazaryasi” fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda faol uslublarni to‘g‘ri tanlash va muammolarni etarli darajada tushuntirish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol, texnologiya, trening, respondent, noan’anaviy, induvidual, optima

Kirish

“Mashina mexanizmlar nazaryasi” fanidan laboratoriya ishlarini bajarish o‘quvchi ma’ruza va amaliy mashg`ulot darslarida o‘tilgan mavzular hamda faoliyati jarayonida uning oldiga qo‘yilgan nazorat va amaliy topshiriqlarni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. “Mashina mexanizmlar nazaryasi” fanida laboratoriya ishi bajarishda faol uslublarni to‘g‘ri tanlash muammosini etarli darajada tushunmaslik hollari uchraydi. U yoki bu uslub optimalligi uning atalishi odatdagicha bo‘lib qolinganligi bilan emas, balki bajariladigan laboratoriya ishi mazmuniga mosligi, o‘quvchi imkoniyatiga muvofiqligi bilan baholanadi. Eng maqbul tanlangan uslublar qo‘yilgan muammoni belgilangan vaqtda ijobiy hal qilish imkonini beradi.

O‘qituvchi “Mashina mexanizmlar nazaryasi” fanida laboratoriya ishini bajarishni rejalashtirishda va noan’anaviy uslublarni tanlashda quyidagilarni amalga oshirishi zarur:

- Laboratoriya ishini bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar bilan tanishib chiqib, uni bajarish maqsadi va vazifalarini belgilab olish;
- Laboratoriya ishini bajarish bo‘yicha asosiy talablar: laboratoriya ishini bajarishda o‘quvchi qaysi asosiy tushunchalarni, hodisalarni, jarayonlarni, qonunlarni, nazariyalarni bilishi, nimalarni hal qila olishi kerakligi bilan tanishib chiqib, laboratoriya ishini bajarishdan kutiladigan natijalarni oldindan aniqlab olish;
- O`quv rejasi bilan tanishib, zarur bo‘lsa, unga o‘zgartirish kiritishi, bajariladigan laboratoriya ishlarini tasniflab chiqish;
- Har bir laboratoriya ishini bajarish uchun etarlicha vaqt ajratib, dasturda nazarda tutilgan fanlararo aloqadorlikdan foydalanish, mazkur tajriba ishi mazmuni va vazifalarini rejalashtirish;
- laboratoriya ishini bajarishda zamonaviy texnologiyalar va uslublarni tanlash;
- O`quvchining umumiy, kichik guruhda va induvidual holda laboratoriya ishini bajarishini uyushtirish shakllarining o‘zaro mos birlashmasini tanlash;
- Dars jarayonida tanlangan variantni qo‘llab, laboratoriya ishini bajarish uslubi va shakllariga zarur tuzatishlar kiritib borish.

Muhokama va natijalar Jamiyat rivojidagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishni texnologiyalashririshga olib keladi. Hozirgi davrda texnologiyalashrirish